

## Yangilik va yaxshilik

Bir yilda bir marotaba keladigan va orziqib kutiladigan yangi yil bayrami kirib kelishiga ham oz fursatlar qoldi. Ushbu bayramni TIQXMMI Qarshi filialida ham ko'tarinki kayfiyatda kutib olish maqsadida 18 dekabr kuni filialning "Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat" bo'limi, Kasaba uyushmasi qo'mitasi va bir guruh iqtidorli, iste'dodli talabalari tomonidan "Yangi yil bazmi kechasi" nomli bayram dasturi tashkil etildi. Tadbirda o'quv va tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Sh.Ubaydullaev va ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari H. Ravshanov ishtirok etib, talabalarni kirib kelayotgan yangi yil bilan samimiy muborakbod etdilar. Tadbir qiziqarli savol - javoblar, turli xil sahna ko'rinishlari va sahnalashtirilgan badiiy chiqishlar orqali davom ettirildi. Filialda yangi tashkil etilgan "Talantli talabalar" QVZ jamoasi talabalar hayotidan olingan o'z chiqishlari bilan barchaga yuqori kayfiyat ulashishdi. Yaqinlashib kelayotgan yangi 2020 yil barchangizga muborak bo'lsin!



**Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i B.Ro'ziqulov axboroti**

**TIQXMMI matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov**